

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AQLIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

O‘razaliyeva Sojida Tojiboy qizi

TVCHDPI tyutor

Xolnazarova Mahina Faxriddinovna

TVCHDPI MAT 21/6 guruh talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda intellektual salohiyati yuqori bolalar va o‘zlashtirishi oson va tez bo‘lgan bolalarni tarbiyalash bugungi kun tarbiyachi pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Davlatimiz rahbarining ham bu sohada olib borayotgan islohatlari qabul qilinayotgan qaror va farmonlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: Qobiliyat, intellektual aql, pedagogik texnologiya, intellektual texnologiya, metod, aqliy hujum.

Annotation: One of the main tasks of educators today is to bring up children with high intellectual potential and children who are easy and quick to learn.

Keywords: Ability intellectual intelligence pedagogical technology intellectual technology method mental attack

Mamlakatimizda yosh avlod ta‘lim-tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘g‘il-qizlarning zamonaviy bilim olishi va xorijlik tengqurlari bilan raqobatbardosh bo‘lib ulg‘ayishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish borasida qilinayotgan ishlar izchil va keng ko‘lamda davom etmoqda.

Ta‘lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali bolalarda quyidagi kompetensiyalar rivojlanadi:

- har tomonlama intellektual salohiyatli bugungi zamon talablariga raqobatbardosh bo‘lishlarini taminlaydi;

- ta'lim va o'qishga bo'lgan qiziqishlari ortadi
- bolalarda kreativ fikrlash va yangi g'oyalar shakllanadi
- innovatsion tajribalar va yaratuvchanlik qobiliyatlari rivojlanadi
- berilayotgan topshiriqlarga noodatiy yondashish usullarini o'ylab topishadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida va jarayonida qanday texnologiyalarni qo'llash samarali natijalarga erishishimiz uchun zamin yaratadi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladiga muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishisdir. Qisqa vaqt mobaynida muayyan nazariy-ilmiy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan kompetensiyalarni baholash pedagogdan yuksak mahorat va ta'lim muhitiga yangicha yondashuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

„AQLIY HUJUM” METODI

Mazkur metod bolalarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash va oshirish, qisqa vaqt mobaynida fikr yuritishlariga undash va bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang fikrlarni to'plash imkonini, mustaqil va erkin fikr yuritishni ta'minlaydi.

„Aqliy hujum” metodining asosiy tamoyili va sharti mashg‘ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan berilgan fikrlarni oxirigacha eshitish fikr yakunlangach umumiy va qo‘shimcha xulosalarni berish.

“TAJRIBA VOSITASIDA O‘QITISH SIKLI” METODI

Mazkur metod quyidagi 4 omil asosida quriladi:

- reflektiv kuzatish;
- abstrakt xulosalash;
- faol tajriba olib borishga tayyorlanish;
- aniq tajriba o‘tkazish.

Yuqorida qayd etilgan omillarning har biri muayyan g‘oyaga asoslanadi.

Chunonchi:

1. O‘quvchilar uchun mashqlar mazmunini tanqidiy o‘rganish va ular ustida fikr yuritish imkoniyatini beruvchi sharoit yarat (reflektiv kuzatish);
2. O‘quvchilarga zarur nazariy bilimlarni ber;
3. Muammo yuzasidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirish va xulosalash uchun sharoit yarat (abstrakt xulosalash);
4. O‘quvchilarga mukammal shakllangan, ayni vaqtda yana bir bor tekshirib chiqilishi lozim bo‘lgan mashqlarni ishlab chiqish imkonini ber (faol tajriba olib borishga tayyorlanish);
5. Yakuniy xulosani shaxsiy tajribadan o‘tkaz va faoliyatda undan foydalan (aniq tajriba o‘tkazish).

“BESHINCHISI (OLTINCHISI, YETTINCHISI, ...) ORTIQCHA METODI

O‘quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llash quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;

— hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan 4 ta (5 ta, 6 ta, ...) va taalluqli bo‘lmagan bitta tushunchaning o‘rin olishiga erishish;

— o‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

— o‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tishlari hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘likni asoslashlarini talab etish lozim).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o‘rtasidasigi mantiqiy bog‘likni ko‘rsata va asoslash olish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini asoslay, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o‘zaro taqqoslash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Shavkat Mirziyoyev.,Erkin va farovon,Demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz’.Toshkent - „O‘zbekiston’’-2016.

2.Xo‘jaev N.,Xoshimova M.,Hakimova M. va boshqalar.Pedagogika.(darslik)-T.:TDIU,2007.

3.Ismailova Z.K.Pedagogika.Darslik.T.:Moliya,2008.

4.Z.F.Sharopova.Ta’lim texnologiyalari.Toshkent-2019.